

PROSPECTS FOR SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF KOSHKOPIR DISTRICT

Sobirov Javoxir Xayrulla o'g'li
Student of Urgench State University

Karimova Shahnoza Ahmed qizi
Student of Urgench State University

Matnazarova Malohat Islambayevna
Student of Urgench State University

ANNOTATION

This article describes the work done and planned measures for the socio-economic development of the economy of Koshkopir district using the available land and labor resources. It is also based on the views of the authors of the article on the socio-economic development of the district.

Keywords: land and labor resources, exports, imports, investment, local and foreign investors

ANNOTASIYA

Ushbu maqolada Qo'shko'pir tumani iqtisodiyotini mavjud yer va mehnat resurslaridan foydalangan holda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida olib borilgan ishlar va olib borilishi rejalashtirilgan chora tadbirlar haqida yozilgan. Shuningdek maqola mualliflarining tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir fikr va mulohazalaridan kelib chiqqan holda yozilgan.

Kalit so'zlar: yer va mehnat resurslari, eksport, import, investitsiya, mahalliy va xorijiy investorlar

KIRISH


Qo'shko'pir tumani Xorazm viloyatidagi eng katta tumanlardan biri hisoblanib hududining katta qismi unumdor va ko'p hosil beradigan yerlar maydoni anchagina shu bois bu maqolani yozishdan maqsad shuki tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun asosiy sabab ya'ni tumanni nafaqat Xorazmdagi balki respublikamizdagi eng rivojlangan tumanlardan biri qilish va tumanda mavjud bo'lgan yer va mehnat resurslaridan foydalanib birinchi navbatda ichki bozorni va keyin tez fursatlarda jahon bozoriga xorijiy mamlakatlarga eksport qilish. Bunday ulkan natijalarga erishishning asosiy sabab va maqsadi haqida ushbu maqolada ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

ASOSIY QISM

Qo'shko'pir tumani Xorazmning g'arbiy qismida joylashgan bo'lib tabiiy geografik o'rni jihatidan qulay hisoblansa Iqtisodiy geografik o'rin nuqtai nazaridan sal noqulay hisoblanadi sababi tuman hududidan yirik transport yo'llari o'tmagan(Xiva- Urganch yo'nalishidagi katta yo'l esa tumanning chekka qismidan o'tadi).

1-jadval Ushbu jadvalda tumanning maydoni aholisi va tashkil topgan sanasi tasvirlangan.

XORAZM VILOYATI TARKIBIDA QO'SHKO'PIR TUMANINING JOYLASHISHI



2-jadval Ushbu jadval O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.[2]

N ^o	Tuman nomi	Tashkil topgan sanasi	Umumiy yer maydoni (ming km ²)	Aholisi (01.01.2020) (ming kishida)
1.	Qo'shko'pir	17.02.1936	0.54	141.4

Qo'shko'pir Tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda bir qancha usullardan foydalangan holda kompleks rivojlantirish mumkin. Respublikamizning boshqa tuman va hududlarining rivojlanishiga ayrimlarinikiga faqat sanoatning rivojlanishi bog'liq bo'lsa, ba'zi tumanlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga kon qazib olish turtki bo'lgan va boshqa tarmoqlar ularni hammasini aytib o'tirsak asosiy mavzudan chetga chiqib ketgan bo'lamiz. Qo'shko'pir tumanini Iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish uchun esa tumandagi ko'plab tarmoqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Hozirgi kunda rivojlanish eng avvalo hududdagi sanoat korxonalarini, transport yo'llari, xomashyo zaxiralari, mehnat bozori va boshqa tarmoqlar asosiy o'rinni egallaydi. Qo'shko'pir tumanini Iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish uchun ham yuqoridagi aytib o'tilgan tarmoqlardan foydalanish orqali hududni nafaqat viloyatdagi balki respublikamizdagi eng rivojlangan tumanlardan biri qilsa bo'ladi. Buning uchun eng asosiy

ikkita tarmoqni rivojlantirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bular tumandagi unumdorligi yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish va tumanda mavjud bo'lgan xomashyo zaxiralaridan foydalanib turli xil mahsulotlar ishlab chiqarish. Har bir hududni rivojlantirish uchun avvalo investitsiya kerak bo'ladi. Tumanda sanoatni rivojlantirish (qishloq xo'jaligi ekinlari va mahsulotlari hamda sanoat uchun xomashyo zaxiralaridan foydalanib) uchun albatta chet el va mahalliy investitsiyalarni jalb etish orqali ko'pgina natijalarga erishish mumkin. Masalan, tumanda bittagina o'rtacha kattalikdagi paxta tolasi yoki paxtadan tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalar qurilsa birinchi navbatda tuman aholisining mehnatga layoqatli qismi ish bilan ta'minlanadi va aholining turmush darajasi yaxshilanishiga sabab bo'ladi.

Shu o'rinda bir gap prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganidek "Xalq boy bo'lsagina davlat ham boy va qudratli bo'ladi" [4]

Yuqoridagi prezidentimizning takidlaganidek xalqni boy qilish kerak. Shu sababli hududlarda turli xil mahsulotlar ishlab chiqarish uchun yirik katta-katta maydonlarni egallagan korxonalar va zavodlar emas balki kichik-kichik korxonalar tashkil etish maqsadga muvofiq. Sababi hozirgi kunda ko'pchilik adabiyotlarda ham bu borada so'z boradi. Qo'shko'pir tumanini Iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish uchun istiqbolda birinchi navbatda tumanning eksport salohiyatini oshirish bu borada asosan ikki tarmoq: sanoatning eksport salohiyatini oshirish va agrar sohaning eksport salohiyatini oshirish hisoblanadi.

Boshqa tarmoqlarni ham rivojlantirsa bo'ladi masalan, xizmatlar ko'rsatish sohasini va boshqalarni. Lekin eng asosiysi yuqoridagi aytib o'tilgan ikkita tarmoq hisoblanadi. Sanoatning rivojlanishi uchun viloyatda hususan tumanda yetishtirilayotgan meva-sabzavotlarni zamonaviy texnologiyalar asosida qayta ishlash bo'yicha katta resurs bazasi mavjud.

Bu borada umumiy viloyatda va tumanda boy mahalliy xomashyo bazasi va ishchi kuchining nisbatan arzonligi kabi omillardan samarali foydalanish mumkin. Tumanda sanoat uchun xomashyo bo'ladigan narsalarga, tuzorlar (pilla-chilikni rivojlantirish uchun), jun va teri (qorako'l qo'ylari va juni uchun boshqa qo'ylar), qurilish materiallari (silikat bloklari ishlab chiqarish), bog'lar (olma, o'rik, shaftoli va boshqa), paxtachilik, g'allachilik, chorvachilik (go'sht va sut) va boshqa tarmoqlar sanoat uchun xomashyo bo'ladi va tuman uchun katta foyda keltiradi.

Agrar sohaning eksport salohiyatini oshirishda birinchi navbatda tumanda yetishtirilayotgan paxta, g'alla, va boshqa agrar soha ekinlaridan emas balki tumanni sharoitiga mos o'sa oladigan va yuqori natijalarga erishsa bo'ladigan noyob o'simliklardan, noyob daraxt turlaridan foydalanish va tuman iqtisodiyoti uchun foyda keltiradigan narsalardan foydalansa nafaqat tuman iqtisodiyoti aholi turmush darajasi yaxshilanishiga xizmat qiladi.[1]

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida yuqorida asosiy qismda aytib o'tilgan barcha gaplarga amal qilgan holda ya'ni tumanda shu yerlarda mavjud bo'lgan xomashyo va mehnat resurslaridan foydalangan holda katta natijalarga erishsa bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi" A.M.Sodiqov. Sh.X.Nazarov. E.T.Yoqubova. D.A.Junaydullayev. X.M.Saidaxmedov. A.J.Adizov. N.N.Safarova. N.B.Qurbanboyeva. R.R.Abdullayev. Sh.X.Otaboyev. B.S.Eshimov. Sh.Qurbonov. Toshkent-2015.
2. "O‘zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi" A.Soliyev. M.Nazarov. Sh.Qurbonov. O‘zbekiston respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti. Toshkent-2010.
3. O‘zbekiston respublikasi statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. 2010-yil.
4. <https://mineconomy.uz/uz/info/1494> internet sayti.